



DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALAR FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH

Axmedov Xasan Ruzibayevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
PhD, dots.

https://doi.org/10.55439/ECED/vol25_iss2/a64

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatini tartibga solish masalalarini o'rganishda davlatning iqtisodiyotdagi ishtiroki, davlat ishtirokidagi korxonalar boshqaruvi, ular faoliyatini tartibga solishning nazariy-iqtisodiy asoslari o'rganilgan. Milliy amaliyotda davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatini tartibga solishning ahamiyati, amalag oshirilayotgan choralar va kelgusidagi rejalar tahlil qilingan. Amalga oshirilgan tahlillar asosida tegishli xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: aksiya, emissiya, davlat ishtirokidagi korxonalar, davlat ulushi, fond bozori, kapital bozori, kapital jalb qilish, qimmatli qog'ozlar, minoritar aksiyador.

РЕГУЛИРОВАНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Ахмедов Хасан Рузибаевич
Ташкентский государственный экономический
университет, PhD, доц.

Аннотация. В данной статье при исследовании вопросов регулирования деятельности государственных компаний изучено участие государства в экономике, управление государственными компаниями, а также теоретические и экономические основы регулирования их деятельности. В отечественной практике анализируется важность регулирования деятельности государственных компаний, реализуемые меры и планы на будущее. На основании проведенного анализа формируются соответствующие выводы.

Ключевые слова: акции, эмиссия, государственные компании, государственная доля, фондовый рынок, рынок капитала, привлечение капитала, ценные бумаги, миноритарный акционер.

REGULATION OF THE ACTIVITIES OF STATE-OWNED COMPANIES

Khasan Akhmedov Ruzibayevich
PhD, assoc. prof. Tashkent State Economic University

Abstract. In this article, the participation of the state in the economy, the governance of state-owned companies, and the theoretical and economic basis of regulating their activities have been studied in the study of the issues of regulating the activities of state-owned companies. In the national practice, the importance of regulating the activities of state-owned companies, measures being implemented and future plans are analyzed. Relevant conclusions are formed based on the performed analysis.

Keywords: stock, issue, state-owned companies, state share, stock market, capital market, capital attraction, securities, minority shareholder.

Kirish. Mamlakatimiz iqtisodiyotida davlat ishtiroki yuqori ekanligi sababli bugungi kunda iqtisodiyotni rivojlantirish, iqtisodiyotdagi pul oqimini oshirish, kapital bozorini rivojlantirish kabilarni samarali tashkil etishda davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatini tartibga solish muhim ahamiyatga ega. Davlat ishtirokidagi bir qator aksiyadorlik jamiyatlarida ma'lumotlar oshkoraligi va shaffofligi, investitsion va innovatsion faoliyatning samarali yo'lga qo'yilmaganligi, samarali korporativ boshqaruvni yo'lga qo'yishning qoniqarli darajada tashkil etilmaganligi kabi muammolarning saqlanib qolayotganligi davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatini samarali

tartibga solish masalalarini o'rganish dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar sharhi. Davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatini tartibga solish aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ko'plab xorijiy tadqiqotchilar tomonidan mazkur masala yuzasidan tadqiqotlar olib borilgan.

P. Benoit va boshqalar (2022) "davlat oddiy aksiyadorlar emas, chunki davlat iqtisodiy siyosatni ishlab chiqadi va tartibga soluvchi chegaralarni belgilaydi, ya'ni davlat aksiyadorlik huquqidan foydalanib qolmasdan undan tashqariga ham chiqadi. Davlat korxonalari davlat ishtirokidagi

korxonalar va davlat idoralari o'rtasida resurslar taqsimlanishini belgilaydi va ularga tez-tez qulay moliyaviy shart-sharoitlarni taqdim etadi", deya fikr bildirgan. Davlat buyurtmalarida va shartnomalarida davlat tashkilotlari tomonidan xususi korxonalariga nisbatan davlat korxonalariga ustuvorlik berilishi raqobat muhitining shakllanishiga to'sqinlik qiladi.

Maslani, Hartoyo va Hariantolar (2024) "davlat korxonasi jahon iqtisodiyotida muhim rol o'ynaydi. Dunyodagi 100 ta eng yirik kompaniyalarning taxminan 22 foizi hozirda davlat egaligidagi kompaniyalar hisoblanadi", deya qayd etgan. Davlat tomonidan alohida tarmoqlar yoki sohalarda ustublikning saqlanib qolishi hanuzgacha tez-tez uchramoqda.

M. Gu va R. Art (1996) kabilar tomonidan "davlat ulushini ifodalovchi aksiyalar ham davlat korxonalarini tomonidan chiqariladi hamda davlat korxonalarini tomonidan egalik qilinadi. Davlat korxonasi qimmatli qog'ozlarni chiqarganda uning bir qismi davlat tashkilotida yoki davlat tomonidan vakolat berilgan xolding kompaniyasida bo'ladi" deya fikr bildirilgan. Mazkur holat davlat korxonalarida davlat egaligining qanday shakllanishini aks ettiradi.

Ch. Lu va Y. Niu (2022) fikricha, "davlat korxonalarida xodimlarning ish haqini oshirish xodimlarning o'rtacha ish haqiga nisbatan taqqoslash natijalariga bog'liq bo'lishi mumkin, bu esa rag'batlantiruvchi rol o'ynamaydi. Shu sababli kelgusida ish haqini isloh qilishda, shuningdek, davlat korxonalarining ishlab chiqarish va faoliyat samaradorligini oshirishda institutsional yordam ko'rsatilishi zarur". Davlat korxonalarida faoliyat samaradorligini oshirishda bir tomonlama yondashuv ko'p uchraydi. Natijada ish faoliyati qoniqsiz tashkil etilishi mumkin.

P.Suwignjo (2022) boshchiligidagi mualliflar "Indoneziyada davlat korxonalarining Indoneziyaning umumiy yalpi ichki mahsulotidagi hissasi atigi 6% ni tashkil etadi; Lotin Amerikasi, Meksika, Braziliya, Argentinadagi boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar bilan solishtirganda, masalan, 8%, Afrika mamlakatlari uchun 15% va Yaqin Sharq mintaqasi mamlakatlarida davlat korxonalarining umumiy YaIMdagi hissasi 50% ga yetgan", deya ta'kidlagan. Davlat korxonalarining YaIMdagi ishtirokini obyektiv baholash uchun ularning soni va moliyaviy ko'rsatkichlariga e'tibor qaratish lozim.

Z.Jia va boshqalar (2024) tadqiqotlarida sanoat mehnat taqsimotining uzluksiz takomillashtirish borishi va ishlab chiqarishning diverksifikatsiyasi sababli e'tiborini faqat davlat korxonalariga qaratish bilan cheklanib qolmasdan, balki davlat

korxonalarining butun sanoat zanjiriga ta'sirini ham o'rgangan. "Davlat korxonalarining samarasizligi nafaqat ularning faoliyatiga ta'sir qiladi, balki quyi oqimdagi korxonalariga ham ta'sir qiladi. Biroq, mavjud tadqiqotlar davlat korxonalarining quyi oqim sektoriga ta'sirini har doim ham to'g'ri baholay olmaydi".

Milliy amaliyotda davlat korxonalarini faoliyatini tartibga solishda xususiylashtirish masalasiga ham keng e'tibor qaratilmoqda. B. Mamatov tomonidan "davlat ulushini xususiylashtirishda investorlar faolligini ta'minlash uchun moliya bozorida investitsion faoliyat mexanizmini takomillashtirish dolzarb hisoblanib, qimmatli qog'ozlarga samarali investitsiya qilish orqali, investitsiya risklarni kamaytirish, moliyaviy instrumentlar likvidligini oshirish va ular bo'yicha bitimlarini rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi. Davlat mulkini xususiylashtirishning bir necha modellari mavjud. Bular nominallashtirish, sotish va bepul taqsimlashlardan iborat. Nominallashtirishda mulkni eski egalari qaytarish ko'zda tutiladi. Bu restitutsiya deyilib, barcha Markaziy va Sharqiy yevropa mamlakatlarida qo'llanilgan. Bunda mulk milliyashtirishdan oldin kimga qarashli bo'lsa o'ziga yoki merosxo'rlariga qaytarilgan. Bu albatta katta qismni tashkil etmagan" (B.Mamatov, 2023), deya fikr bilfirilgan.

A. Botirov va boshqalar davlat korxonalarini faoliyatini yaxshilashda davlat-xususiylashtirish sheriklik loyihalariga e'tibor qaratish lozimligini qayd etgan. "Xususiylashtirish va investitsiyalarni jalb qilish bugungi kunda iqtisodiyotni rivojlantirishdagi eng asosiy masalalardan hisoblanadi. Iqtisodiyotni rivojlantirish bilan bir qatorda davlat o'z funksiyalarini bajarish davomida ijtimoiy sohani ham qo'llab-quvvatlashi va rivojlantirishi zarur. Shu sababli davlat-xususiylashtirish sheriklik amaliyoti xalqaro darajada tadqiq qilinmoqda. Mamlakatimizda ham davlat-xususiylashtirish amaliyotini shakllantirishga e'tibor qaratilmoqda va bu orqali xususiylashtirish sektoridan investitsiyalar jalb qilish, mamlakat infratuzilmasini rivojlantirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish kabilarga erishish mumkin. Davlat-xususiylashtirish sheriklik loyihalarini qamrovini kengaytirish va ushbu turdagi loyihalarni samarali amalga oshirish lozim" (Botirov A., Omonov S., Turobkhonov S., 2021).

A.Karimov fikricha, "qimmatli qog'ozlar bozorini har tomonlama rivojlantirish mamlakatning iqtisodiy barqarorligi bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Ya'ni yuridik va jismoniy shaxslarning bo'sh qolgan moliyaviy resurslarini fond bozori orqali davlatdagi yirik va investitsiya talab qiluvchi biznes subyektlariga samarali

yo'naltirish va ularning nazoratini tashkil etish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan" (Каримов А.И., 2023) hisoblanadi. Mazkur jarayonda davlat ishtirokidagi korxonalar yetarlicha faollik ko'rsatmayotganligini alohida ta'kidlash joiz.

"O'zbekistonda banklar innovatsion mahsulotlarini keng joriy qilinishi tendensiyalari va muammolari davlatning innovatsion rivojlantirish strategiyasi bilan belgilangan" (Абдурахимова Д.К., 2023), biroq davlat ishtirokidagi banklarda innovatsion bank mahsulotlarini keng joriy qilish bilan bog'liq qator muammolar mavjud. Mazkur jihat ham davlat korxonalarini faoliyatini samarali tartibga solish zaruratini aks ettiradi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda ta'kidlash lozimki, davlat ishtirokidagi korxonalarining faoliyatini tartibga solishning samarali vositalari qo'llash, xususiylashtirish orqali ularning iqtisodiyotdagi ulushini qisqartirish, samarali korporativ boshqaruvni yo'lga qo'yish kabilarni amalga oshirish zarur.


Tadqiqot metodologiyasi. Davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatini tartibga solish masalalarini o'rganishda qiyosiy tahlil, statistik tahlil, tanlanma kuzatuv, analiz, sintez, ilmiy abstraksiyalash kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Sanoatlashgan iqtisodiyotga ega mamlakatlarning aksariyati qonun ustuvorligiga mustahkam asoslangan ochiq va raqobatbardosh bozorlarga egaligi bilan ajralib turadi, bunda xususiy korxonalar hissasi yuqori hisoblanadi. Biroq, ba'zi boshqa mamlakatlarda, jumladan, ko'plab rivojlanayotgan iqtisodiyotga ega mamlakatlarda davlat korxonalarini son jihatdan yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lsada,

YaIM, bandlik va bozor kapitallashuvida kichik ulushni tashkil etadi. Davlat korxonalarini iqtisodiyotda unchalik katta bo'lmagan rol o'ynaydigan mamlakatlarda ham ular ko'pincha energetika, transport, telekommunikatsiya kabi aholi va tadbirkorlik sohasining boshqa qismlari uchun ahamiyatga ega bo'lgan kommunal va infratuzilma tarmoqlarida keng tarqalgan bo'lib, ularning ko'rsatkichlari aholining keng qatlamlari uchun katta ahamiyatga ega. Binobarin, davlat korxonalarini to'g'ri boshqarish ularning iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlikka ijobiy hissa qo'shishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bozor tamoyillariga asoslangan rivojlanish strategiyalari resurslarni samarali taqsimlashning eng samarali usuli hisoblanadi.

Bir qator davlatlar davlat korxonalarini tashkil etish va faoliyatini tartibga solish usullarini isloh qilish jarayonida ilg'or xalqaro tajribalardan foydalangan. Mazkur jarayonda davlatni mulkdor sifatida professionalashtirish, davlat korxonalarini xususiy korxonalar kabi samaradorlik, shaffoflik va hisobdorlik bilan ishlashini ta'minlash hamda davlat korxonalarini va xususiy korxonalar o'rtasidagi raqobat teng sharoitda o'tkazilishini ta'minlashga e'tibor qaratiladi.

Davlat korxonalarini faoliyatini yaxshilash hamda mazkur korxonalarda minoritar aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini mustahkamlash zarur. Minoritar aksiyadorlar va investorlar huquqlarini himoya qilish hamda ularni kapital bozoriga jalb etishni rag'batlantirish maqsadida 2023-yil 1-oktabrdan boshlab quyidagilar amalga oshirilishi belgilangan (1-rasm).



Davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan korxonalarining aksiyalari fond bozorida ommaviy taklif qilish orqali joylashtirilgandan so'ng kamida yetti yil davomida mazkur korxonalar sof foydasining kamida 30 foizi dividend to'lashga yo'naltirish

Davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan korxonalariga xizmat ko'rsatuvchi anderrayterlarning xizmat haqi qimmatli qog'ozlar rejalashtirilganga nisbatan qimmatroq va (yoki) ko'proq joylashtirilganligi natijasida shartnomada kelishilgan miqdordan oshgan hollarda, shartnoma boshlang'ich narxini 10 foizdan ortiqqa oshirmaslik to'g'risidagi cheklovni bekor qilis

1-rasm. Minoritar aksiyadorlar va investorlar huquqlarini himoya qilish hamda ularni kapital bozoriga jalb etishni rag'batlantirish maqsadida amalga oshiriladigan choralar[11]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kapital bozorini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-291-son Qaroriga asosan davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo‘lgan korxonalarining aksiyalari fond bozorida ommaviy taklif qilish orqali joylashtirilgandan so‘ng kamida yetti yil davomida mazkur korxonalar sof foydasining kamida 30 foizi dividend to‘lashga yo‘naltirish hamda davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo‘lgan korxonalariga xizmat ko‘rsatuvchi anderrayterlarning xizmat haqi qimmatli qog‘ozlar rejalashtirilganga nisbatan qimmatroq va (yoki) ko‘proq joylashtirilganligi natijasida shartnomada kelishilgan miqdordan oshgan hollarda, shartnoma boshlang‘ich narxini 10 foizdan ortiqqa oshirmaslik to‘g‘risidagi cheklovni bekor qilish belgilangan. Shuningdek, 2023-yil 1-dekabrda boshlab vakolatli davlat organiga qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari bilan belgilangan axborot va hisobotlar bir yil ichida ikki va undan ortiq marta o‘z vaqtida oshkor etilmaganligi uchun emitentning ijroiya organini o‘zgartirish to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqish to‘g‘risida ko‘rsatma kiritish

va emitentning qimmatli qog‘ozlar chiqarilishini to‘xtatib qo‘yish huquqi berilishi nazarda tutilgan.

2023-2025-yillarda kapital bozorini rivojlantirishda xorijiy investorlar uchun davlat qimmatli qog‘ozlari bozorida savdo qilish tartibini soddalashtirishda moliyaviy axborotlarni almashish (FIX) protokoli yoki standartlashtirilgan API yordamida bozor ma‘lumotlarini uchinchi shaxslarga tarqatish va ichki tizimlar, jumladan buyurtmalarni boshqarish tizimlari (OMS), chet ellik investitsiya vositachilari va boshqalardan keladigan savdo buyurtmalarini qabul qilish imkonini yaratish, xorijiy investorlarga (tan olingan chet el banklari, shu jumladan kastodian banklarga) davlat qimmatli qog‘ozlari bozorida birlamchi diler faoliyatini olib borishini ta‘minlash, davlat va korporativ qimmatli qog‘ozlarni hisobga olishning yagona depozitar tizimi yaratilgunga qadar “O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” AJ tomonidan chet ellik nominal saqllovchilar va investitsion vositachilarga o‘z depozitar tizimida depozitar xizmatlarni ko‘rsatish va davlat qimmatli qog‘ozlar depo hisobvaraqlarini yuritishni yo‘lga qo‘yish kabilar amalga oshirilishi rejalashtirilgan (1-jadval).

1-jadval

2023-2025-yillarda kapital bozorini rivojlantirishda xorijiy investorlar uchun davlat qimmatli qog‘ozlari bozorida savdo qilish tartibini soddalashtirish yo‘nalishlari [12]

№	Amalga oshirish mexanizmi	Amalga oshirish shakli	Ijro muddati	Mas‘ul ijrochilar
1.	Moliyaviy axborotlarni almashish (FIX) protokoli yoki standartlashtirilgan API yordamida bozor ma‘lumotlarini uchinchi shaxslarga tarqatish va ichki tizimlar, jumladan buyurtmalarni boshqarish tizimlari (OMS), chet ellik investitsiya vositachilari va boshqalardan keladigan savdo buyurtmalarini qabul qilish imkonini yaratish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2024-yil sentyabr	“O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” AJ (O‘zRVB)
2.	Xorijiy investorlarga (tan olingan chet el banklari, shu jumladan kastodian banklarga) davlat qimmatli qog‘ozlari bozorida birlamchi diler faoliyatini olib borish imkoniyatini yaratish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2024-yil dekabr	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Markaziy bank, O‘zRVB
3.	Davlat va korporativ qog‘ozlarni hisobga olishning yagona depozitar tizimi yaratilgunga qadar “O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” AJ tomonidan chet ellik nominal saqllovchilar va investitsion vositachilarga o‘z depozitar tizimida depozitar xizmatlarni ko‘rsatish va davlat qimmatli qog‘ozlar depo hisobvaraqlarini yuritish uchun sharoit yaratish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2024-yil mart	O‘zRVB, Markaziy bank

2-jadvaldagi 2023-2025-yillarda kapital bozorini rivojlantirishda qimmatli qog‘ozlar hajmini oshirish bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlarga to‘xtalib o‘tilsa, 2024-yil iyngacha davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan tijorat banklari va sug‘urta tashkilotlari tomonidan uyushgan savdolaridagi qimmatli qog‘ozlarga (davlat qimmatli qog‘ozlari bundan mustasno) kiritiladigan investitsiya hajmini ular tomonidan davlat qimmatli qog‘ozlariga qilingan jami investitsiyalar

hamda depozit va/yoki depozit sertifikatlariga qo‘yilgan mablag‘larga nisbatan 3 (uch) foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Shuningdek, davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan davlat ishtirokidagi korxonalar bir moliya yilida jalb qiladigan jami mablag‘larining bir qismini (kreditning kamida 5 foizini) mahalliy kapital bozorida birja va korporativ obligatsiyalarni qimmatli qog‘ozlarning uyushgan savdolarida joylashtirish orqali jalb etishi belgilangan.

2023-2025-yillarda kapital bozorini rivojlantirishda qimmatli qog'ozlar hajmini oshirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar [12]

№	Amalga oshirish mexanizmi	Amalga oshirish shakli	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
1.	Davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan tijorat banklari va sug'urta tashkilotlari tomonidan uyushgan savdolaridagi qimmatli qog'ozlarga (davlat qimmatli qog'ozlari bundan mustasno) kiritiladigan investitsiya hajmini ular tomonidan davlat qimmatli qog'ozlariga qilingan jami investitsiyalar hamda depozit va/yoki depozit sertifikatlariga qo'yilgan mablag'larga nisbatan 3 (uch) foizga yetkazish.	Chora-tadbirlar rejasi	2024-yil iyun	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Davaktiv agentligi, ILMA
2.	Davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan davlat ishtirokidagi korxonalar bir moliya yilida jalb qiladigan jami mablag'larining bir qismini (kreditning kamida 5 foizini) mahalliy kapital bozorida birja va korporativ obligatsiyalarni qimmatli qog'ozlarning uyushgan savdolarida joylashtirish orqali jalb etish.	2024-2025-yillar uchun grafik asosida	2025-yil mart	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Davaktiv agentligi, ILMA

Xulosa va takliflar. Mazkur maqolada davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatini tartibga solish masalalarini o'rganish asosida quyidagi xulosalar shakllantirilgan.

Birinchidan, davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatini tartibga solishning huquqiy mexanizmlari kuchaytirish va ularning amalda ishlashini ta'minlashga e'tibor qaratish lozim;

Ikkinchidan, davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatini tartibga solishda davlat korxonalarining kapital bozorida faolligini oshirishni nazarda tutish lozim. Mazkur jarayonda davlat korxonalari tomonidan kapital bozorida likvidli va rentabelli

qimmatli qog'ozlar taklif etilishini ta'minlash masalalari ko'rib chiqilishi zarur;

Uchinchidan, davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatini tartibga solishda o'zini o'zi tartibga solish mexanizmlari kuchaytirish hamda amalda korxonalar faoliyati bo'yicha erkinlik ta'minlanishi zarur. Bu orqali davlat korxonalarining moliyaviy va iqtisodiy ko'ratkichlarini yaxshilash imkoniyati paydo bo'ladi;

To'rtinchidan, davlat korxonalarini xususiy- lashtirish amaliyotiga e'tibor qaratish lozim. Mazkur jarayonda kapital bozori imkoniyatlariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Philippe Benoit, Alex Clark, Moritz Schwarz, Arjuna Dibley. Decarbonization in state-owned power companies: Lessons from a comparative analysis. // *Journal of Cleaner Production*, Volume 355, 25 June 2022.
- Maslani, Hartoyo, Rizal Syarief, Harianto. Strengthening the competitiveness of state-owned enterprises. // *Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity*, Volume 10, Issue 1, March 2024.
- Minkang Gu, Robert C. Art. Securitization of State Ownership: Chinese Securities Law. // *Michigan Journal of International Law*, Volume 18, Issue 1, 1996. – P.128;
- Chuang Lu, Yuhao Niu. Do companies compare employees' salaries? Evidence from state-owned enterprise group. // *China Journal of Accounting Research*, Volume 15, Issue 3, September 2022. – p 20.
- Patdono Suwignjo, Ketut Gunarta, Naning Aranti Wessiani, Andhika Eko Prasetyo, Lila Yuwana. Framework for Measuring Process Innovation Performance at Indonesian State-Owned Companies. // *Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity*, Volume 8, Issue 2, June 2022
- Zhijie Jia, Shiyang Wen, Boqiang Lin. Would behaviors of state-owned enterprises impact the performance of downstream industries in China? // *Economic Analysis and Policy*, Volume 81, March 2024, Pages 1007-1035
- B.Mamatov. Iqtisodiyotdagi davlat ulushini xususiy lashtirishda investorlar faolligini ta'minlashning konseptual asoslari. // *Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati*, 2023. – B. 18-19.
- Botirov A., Omonov S., Turobkhonov S. Features Of Public-Private Partnership Practice // *International Finance and Accounting*. – 2021. – T. 2021. – №. 1. – C. 17.
- Каримов А.И. АХОЛИНИНГ БЎШ ПУЛ МАБЛАҒЛАРИНИ ҚИММАТЛИ ҚОҒОЗЛАР БОЗОРИГА ЖАЛБ ҚИЛИШ МЕХАНИЗМЛАРИ САМАРАДОРЛИГИ ТАҲЛИЛИ // *Экономика и финансы (Узбекистан)*. 2021. №10 (146). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/a-olining-b-sh-pul-mabla-larini-immatli-o-ozlar-bozoriga-zhalb-ilish-mehanizmlari-samaradorligi-ta-lili> (дата обращения: 22.11.2023).
- Абдурахимова Д.К. ИННОВАЦИОН БАНК МАҲСУЛОТ-ЛАРИНИНГ ЖАҲОН ИҚТИСОДИЁТИ ТАРАҚҚИЁТИДАГИ РОЛИ ВА УЛАРДА ҚЎЛЛАНИЛАДИГАН ТУРЛАРИ // *PEDAGOGS jurnali*. – 2023. – T. 36. – №. 1. – C. 161-170.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-291-son Qarori. 2.09.2023. <https://lex.uz/docs/-6590025>
- 2023-2025-yillarda kapital bozorini rivojlantirish bo'yicha yo'l xaritasi. // *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-291-son Qarori 4-ilova*, 2.09.2023.